

## O‘ZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOTCHILIK KOOPERATSIYALARINING HOZIRGI HOLATI, SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

**Kadirova Maraljon Matyakubovna**  
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD

**Saidmuratova Iroda Abdullayevna**  
Buxoro davlat universiteti talabasi

### Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda meva-sabzavotchilik kooperatsiyalarining hozirgi holati va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida meva-sabzavot mahsulotlari eksportining o‘shish dinamikasi, kooperatsiyalarning iqtisodiy ahamiyati hamda tarmoqdagi mavjud muammolar o‘rganilgan. Kooperativlarning moliyalashtirish, infratuzilma, boshqaruv va eksport bozorlariga chiqish bilan bog‘liq cheklovlari aniqlangan. Xorijiy tajriba asosida kooperatsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida kooperatsiyalarni rivojlantirish kichik ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, eksport hajmini kengaytirish va qishloq aholisining daromadlarini barqaror ko‘paytirishga xizmat qilishi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** meva-sabzavotchilik, kooperatsiya, eksport, qishloq xo‘jaligi, logistika, infratuzilma, raqobatbardoshlik, fermer xo‘jaliklari.

### Аннотация

В данной статье проанализировано современное состояние плодоовощных кооперативов Узбекистана и пути повышения их эффективности. В ходе исследования изучены динамика экспорта плодоовощной продукции, экономическое значение коопераций и существующие проблемы отрасли. Выявлены ограничения кооперативов, связанные с финансированием, инфраструктурой, управлением и выходом на экспортные рынки. На основе зарубежного опыта обоснованы организационно-экономические механизмы повышения эффективности коопераций. Результаты исследования показали, что развитие кооперативов способствует повышению конкурентоспособности мелких производителей, расширению экспортного потенциала и устойчивому росту доходов сельского населения.

**Ключевые слова:** плодоовощеводство, кооперация, экспорт, сельское хозяйство, логистика, инфраструктура, конкурентоспособность, фермерские хозяйства.

### Abstract

This article analyzed the current state of fruit and vegetable cooperatives in Uzbekistan and the ways to improve their efficiency. The study examined export growth dynamics, the economic importance of cooperatives, and the main challenges in the sector. The research identified limitations related to financing, infrastructure, management quality, and access to export markets. Based on international experience, organizational and economic mechanisms for improving cooperative efficiency were

substantiated. The findings showed that the development of cooperatives contributed to increasing the competitiveness of small producers, expanding export capacity, and ensuring stable income growth for the rural population. The article also highlighted the importance of logistics, processing infrastructure, and market integration in strengthening the sustainability of fruit and vegetable cooperatives.

**Keywords:** fruit and vegetable production, cooperation, export, agriculture, logistics, infrastructure, competitiveness, farms.

## **KIRISH**

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida meva-sabzavotchilik tarmog‘i alohida iqtisodiy ahamiyatga ega. Mamlakatimizning qulay iqlim sharoiti, an‘anaviy bog‘dorchilik va sabzavotchilik madaniyati, shuningdek, aholi bandligi va eksport salohiyatini oshirishda ushbu tarmoqning roli beqiyosdir. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va xorijiy bozorlarga yetkazib berish hajmi oshgan bo‘lsa-da, kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarining yakka holda faoliyat yuritishi ularning raqobatbardoshligini pasaytirmoqda. Aynan shu muammoni hal etishda kooperatsiya mexanizmi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kooperatsiya orqali ishlab chiqaruvchilar resurslarni birlashtirish, qayta ishlash korxonalariga chiqish, saqlash va logistika xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, yirik savdo tarmoqlari va eksport bozorlari bilan bevosita ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari (Niderlandiya, Isroil, Turkiya, Hindiston va boshqalar) tajribasi kooperatsiyaning meva-sabzavotchilik samaradorligini keskin oshirishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Biroq O‘zbekistonda ushbu sohadagi kooperatsiyalar hali to‘liq shakllanmagan, ularning faoliyatida jiddiy tashkiliy va iqtisodiy muammolar mavjud.

Mavjud adabiyotlar va amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab kooperativlar quyidagi to‘siqlarga duch kelmoqda: qonunchilik bazasining nomukammalligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, a‘zolar o‘rtasida ishonch va kooperatsiya madaniyatining pastligi, zamonaviy infratuzilmaning yo‘qligi, shuningdek, eksport bozorlari haqida ma‘lumot olishning cheklanganligi. Shu sababli, mamlakatimizda meva-sabzavotchilik kooperatsiyalarining hozirgi holatini atroflicha o‘rganish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini ilmiy asoslash dolzarb vazifadir.

Ushbu maqolaning maqsadi - O‘zbekistonda meva-sabzavotchilik kooperatsiyalarining amaldagi holatini tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni taklif etishdan iborat. Maqolada kooperatsiyaning nazariy asoslari, xorijiy tajriba, shuningdek, mahalliy kooperatsiyalarning faoliyat ko‘rsatish xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari yoritiladi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Qishloq xo‘jaligida kooperatsiya munosabatlari va uning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, J. Stiglitz kooperatsiyalarni kichik ishlab chiqaruvchilarning bozor muvaffaqiyatsizliklariga qarshi samarali iqtisodiy mexanizm sifatida baholab, ular

orqali tranzaksiya xarajatlari kamayishi va ishlab chiqaruvchilarning bozor kuchi oshishini asoslab bergan [4]. E. Ostrom esa kollektiv boshqaruv institutlari orqali resurslardan samarali foydalanish va hamkorlik tizimini shakllantirish mumkinligini ta'kidlagan [5].

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda meva-sabzavotchilik kooperatsiyalarining turli modellari o'rganilgan. Bijman tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda Gollandiya qishloq xo'jaligi kooperativlarining bozor oriyentatsiyasiga asoslangan faoliyati va eksport salohiyatini oshirishdagi roli tahlil qilingan [6]. Valentinov kooperatsiyalarni qishloq xo'jaligida institutsional barqarorlikni ta'minlovchi muhim iqtisodiy subyekt sifatida izohlab, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatgan [7]. Cook tadqiqotlarida esa qishloq xo'jaligi kooperativlarini rivojlantirishda ichki boshqaruv tizimi, investitsiyalarni jalb qilish va a'zolar manfaatlarini muvofiqlashtirish muhim omil ekani qayd etilgan [8].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ham kooperatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni alohida baholangan. International Cooperative Alliance (ICA) va EURICSE hisobotida dunyoning yirik kooperativlari iqtisodiyotda barqaror ishlab chiqarish, bandlik va eksportni ta'minlovchi muhim institut sifatida e'tirof etilgan [1]. Cooperatives Europe ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida kooperativlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, logistika va eksport jarayonlarining muhim qismini tashkil etadi [2]. FAO tomonidan O'zbekiston bilan 2025-2027 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturlarida ham meva-sabzavotchilik kooperatsiyalarini rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini oshirish zarurligi qayd etilgan [3].

Mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham qishloq xo'jaligida kooperatsiya mexanizmlarini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Karimov va boshqa tadqiqotchilar fermer xo'jaliklarining kooperatsiyaga qo'shilishida infratuzilma va moliyaviy rag'batlantirish muhim omil ekanligini aniqlagan. Abdurahmonov esa kooperativlar faoliyatida boshqaruv malakasi va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi pastligini asosiy muammo sifatida ko'rsatgan. Matyakubovna tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot, xalqaro sertifikatlashtirish va zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish qishloq xo'jaligi tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan [9]; [10]. Shuningdek, korporativ madaniyat va samarali boshqaruv uslublarining kooperativlar faoliyatidagi ahamiyati ham ilmiy jihatdan yoritilgan [11].

Rivojlangan davlatlarda kooperatsiyalar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport geografiasini kengaytirish va kichik ishlab chiqaruvchilarning bozor imkoniyatlarini mustahkamlashda muhim vosita sifatida shakllangan. O'zbekiston sharoitida esa meva-sabzavotchilik kooperatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni zamonaviy logistika, qayta ishlash va raqamli boshqaruv tizimlari bilan integratsiyalash bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston meva-sabzavotchilik tarmog‘ining hozirgi tahlili so‘nggi yillarda ushbu sohada sezilarli ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, kooperatsiya mexanizmlarining to‘liq ishga tushmagani va muayyan tarkibiy muammolarning saqlanib qolganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy jihatlariga asoslangan holda tahlil qilindi.

2025-yilda O‘zbekiston 2,2 million tonna meva va sabzavot mahsulotlarini 2,1 milliard AQSH dollari miqdorida eksport qildi. O‘tgan yilga nisbatan eksport hajmi jismoniy ko‘rsatkichlarda 6,2 foizga, pul ifodasida esa 36,9 foizga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari mamlakat umumiy eksportining 6,3 foizini tashkil qilgan. Eksport tarkibida meva va rezavorlar 628,5 ming tonna, sabzavotlar 582,5 ming tonna, tarvuz va qovunlar 233,6 ming tonna, yeryong‘oq va yong‘oqlar 29,3 ming tonna, mosh 148,2 ming tonna, boshqa mahsulotlar esa 540,5 ming tonnani tashkil etgan. 2025-yil yanvar-sentabr oylari natijalariga ko‘ra esa sabzavotlar ulushi 504,4 ming tonnani, meva va rezavorlar 456,1 ming tonnani tashkil etgan. Eksport hajmidagi o‘shishga, avvalo, sabzavotlar va meva–rezavorlar ulushining ortishi hissa qo‘shdi. Eksportdan tushgan daromadning keskin oshishi tashqi bozorlarda o‘zbek mahsulotlariga talab kuchaygani, logistika yo‘nalishlari kengaygani hamda mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi yaxshilangani bilan izohlanmoqda. Meva-sabzavot mahsulotlari mamlakat umumiy eksportining 5,5-6,3 foiz atrofida ulushga ega bo‘lib, bu diversifikatsiya kuchayishidan dalolat beradi. Asosiy eksport bozorlari Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Afg‘oniston va Yevropa mamlakatlaridan iborat.

1-jadval

### O‘zbekiston meva-sabzavot eksportining asosiy ko‘rsatkichlari<sup>1</sup> (2024-2025 yillar)

Ko‘rsatkichlar	2024 yil	2025 yil	O‘shish, foizda
Eksport hajmi, ming tonnada	2075	2202	6,2
Eksport qiymati, mln AQSH dollarda	1534	2100	36,9
Eksportning umumiy eksportdagi ulushi, foizda	5,5	6,3	0,8
Meva va rezavorlar, ming tonnada	590,0	628,5	6,5
Sabzavotlar, ming tonnada	548,0	582,5	6,3
Tarvuz va qovunlar, ming tonnada	220,0	233,6	6,2
Yeryong‘oq va yong‘oqlar, ming tonnada	27,5	29,3	6,5
Mosh, ming tonnada	140,0	148,2	5,9
Boshqa mahsulotlar, ming tonnada	509,5	540,5	6,1

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi kooperatsiyalari to‘g‘risidagi qonunchilik bazasi 2024-yil 8-noyabr O‘RQ-995-son “Qishloq xo‘jaligi kooperativi to‘g‘risida”gi Qonuni<sup>2</sup> qabul qilinishi bilan yanada takomillashtirildi. Mazkur qonun qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishning yagona huquqiy

<sup>1</sup> Manba : <https://uz.kursiv.media/>

<sup>2</sup> O‘zbekistonda Respublikasi 2024-yil 8-noyabr O‘RQ-995-son “Qishloq xo‘jaligi kooperativi to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-7211302>

asoslarini belgilab berdi. Mamlakatda 835 ta agrosanoat klasteri, 90 mingdan ortiq fermer xo‘jaligi va 190 dan ziyod kooperativ faoliyat yuritmoqda. 260 ming gektar maydonda yangi dehqon va fermer xo‘jaliklari paydo bo‘ldi. Taqqoslash uchun: Italiyada 39 600, Turkiyada 33 857, Fransiyada 22 517, Ispaniyada 20 050 ta kooperatsiyalar faoliyat yuritadi. Ushbu raqamlar O‘zbekistonda kooperatsiyalar soni rivojlangan mamlakatlarnikidan sezilarli darajada past ekanligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

Birinchi, moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi pastligi. 2025-yilda qishloq xo‘jaligi subyektlariga 18 trillion so‘m imtiyozli kredit va 176 milliard so‘m subsidiya ajratilgan bo‘lsa-da, bu mablag‘larning kooperatsiyalar faoliyatiga bevosita va ijobiy ta‘siri hali yetarlicha sezilmayapti. Qishloq xo‘jaligi kooperativlariga 500 milliard so‘mlik kredit liniyalari ochilgan, ammo kichik ishlab chiqaruvchilar va fermer xo‘jaliklarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda.

Ikkinchi, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi. 2025-yilda hududlarda jami 2,1 million tonna meva-sabzavot mahsulotlari uchun qadoqlar ishlab chiqarish bo‘yicha 40,5 million dollar miqdoridagi loyihalar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, zamonaviy sovitkichli omborlar, qayta ishlash sexlari va logistika markazlarining soni va sig‘imi hali kooperativlarning to‘liq talabini qondirishdan uzoqdir.


Uchinchi, kooperatsiya madaniyati va boshqaruv malakasining pastligi. Kooperatsiyalarning ichki boshqaruvi, a‘zolar o‘rtasida ishonch va hamkorlik madaniyati, shuningdek, zamonaviy marketing va bozor tahlili ko‘nikmalarining yetishmasligi ularning samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ko‘plab kooperativlar faqat rasmiy ravishda tashkil etilgan bo‘lib, real iqtisodiy samara bermayapti.

To‘rtinchi, eksport bozorlariga chiqishdagi cheklovlar. Meva-sabzavot eksportining katta qismi yirik kompaniyalar va klasterlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Kooperatsiyalar orqali kichik ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari hali keng emas. Xalqaro standart va sertifikatlash talablariga javob berish, logistika xarajatlarini kamaytirish va bozor ma‘lumotlariga ega bo‘lish borasida jiddiy to‘siqlar mavjud.

Beshinchi, qonunchilik bazasining nomukammalligi. Yangi qonun qabul qilingan bo‘lsa-da, kooperatsiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, soliqqa tortish, subsidiyalar ajratish va nazorat qilish mexanizmlari hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Qonunchilikdagi ba‘zi noaniqliklar kooperatsiyalarning samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Meva-sabzavot eksportining ijobiy dinamikasi saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, uni yanada kengaytirish va diversifikatsiya qilish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. 2025-yilning yetti oyida 1 277,7 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilindi (2024-yilga nisbatan 5,2 foiz ko‘proq), tushum 1 066,8 million dollarni tashkil etdi. 2025-yil 10 oylik natijasida esa ushbu ko‘rsatkich 1,7 milliard dollarga yetdi. Eksport hajmining pul ifodasidagi o‘shish sur‘ati jismoniy hajm o‘shishidan sezilarli

darajada yuqori ekanligi eksport tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushi ortganidan dalolat beradi.



**1-rasm. 2025 yilda meva-sabzavot eksport tarkibi<sup>1</sup>.**

Biroq eksport geografiyasi hali bir nechta mamlakatlarga nisbatan yuqori darajada konsratsiyalashganligicha qolmoqda. 2025-yilda meva-sabzavot eksportining 80 foizi atigi besh mamlakat hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa tashqi bozorlardagi o‘zgarishlar va talabning pasayishi xavfini oshiradi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni standartlashtirish, metrologiya va sifatni sertifikatlash sohasida hamkorlik qilish ko‘lamini yanada kengaytirish, eksportchilarni tashqi bozor konyunkturasidagi o‘zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to‘g‘risida ma‘lumotlar bilan tanishtirish masalalari hal etilishi lozim.


Meva-sabzavotchilik mahsulotlarining jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta‘minlashda kooperatsiyalarning roli beqiyosdir. Kooperatsiyalar orqali ishlab chiqaruvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishlari mumkin:

- yangi texnologiyalarni jalb qilish va innovatsion uslublarni qo‘llash,
- tovarlarni xalqaro bozorga olib chiqish imkoniyatining kengayishi,
- qayta ishlash va saqlash xarajatlarini kamaytirish,
- yirik tadbirkorlik subyektlari bilan raqobatlasha olish va monopoliyani oldini olish,
- qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta‘minlash.

Shu bilan birga, xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarning transportda tashish xarajatlarini kamaytirish, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqobatbardosh va ilmiylik talab etiladigan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan xalqaro standartlarni joriy etish, xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan nazoratni joriy etish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Manba : [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma‘lumotlari asosida

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog' i eksport salohiyatining o'sish dinamikasi saqlanib qolgan bo'lsa-da, kooperatsiya mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmagani tarmoqning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. 190 dan ziyod kooperativning mavjudligi va ularga ajratilayotgan moliyaviy resurslarning 500 milliard so'mdan ortiq ekanligi, shuningdek 2,1 milliard dollarlik eksport hajmi tarmoqning imkoniyatlaridan dalolat bersa-da, bu ko'rsatkichlarning real iqtisodiy samaradorlikka aylanishi uchun tizimli o'zgarishlar zarur.



**2-rasm. Ayrim mamlakatlarda qishloq xo'jaligi kooperatsiyalari soni<sup>1</sup>.**

Asosiy natija shundan iboratki, eksport hajmining jismoniy ko'rsatkichlarda 6,2 foizga va pul ifodasida 36,9 foizga o'sgani ijobiy tendensiya bo'lsa-da, bu o'sish asosan yirik klasterlar va kompaniyalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Kooperatsiyalar orqali kichik ishlab chiqaruvchilarning eksportdagi ulushi va ularning umumiy iqtisodiy samaradorlikka qo'shayotgan hissasi hali yetarli darajada emas. Bu holat kooperatsiya mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularni moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish zaruratini ko'rsatadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog' i eksport salohiyatining yildan yilga o'sib borayotgani, 2025-yilda 2,1 milliard dollardan ortiq qiymatdagi mahsulot xorijga yetkazilgani mamlakat qishloq xo'jaligining jahon bozorlaridagi o'rnini mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Biroq eksport hajmining pul ifodasida 36,9 foizga o'sgani, jismoniy hajmdagi 6,2 foizlik o'sishdan ancha yuqori bo'lishi qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ulushi ortgani bilan izohlansa-da, bu o'sish

<sup>1</sup> Manba : <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/2dcf1367-en/1/3/2/46/index.html?>

asosan yirik klaster va kompaniyalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Kooperatsiyalar orqali kichik ishlab chiqaruvchilarning tarmoqdagi ishtiroki va ularning real iqtisodiy samaradorlikka qo‘shayotgan hissasi hali yetarli emas.

Tahlillar natijasida aniqlangan asosiy muammolar - kooperatsiyalar sonining juda kamligi (190 dan ziyod, rivojlangan mamlakatlardagidan o‘nlab marta kichik), moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi pastligi, infratuzilma yetishmovchiligi, kooperatsiya madaniyati va boshqaruv malakasining sustligi hamda eksport bozorlariga chiqishdagi cheklovlardir.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda tizimli ishlarni amalga oshirish zarur: qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish va soliq imtiyozlarini kengaytirish; kooperativlarga yo‘naltirilgan imtiyozli kreditlash va subsidiyalar mexanizmini kuchaytirish; zamonaviy saqlash, qayta ishlash va logistika infratuzilmasini barpo etish; raqamli platformalar orqali marketing va eksport ma‘lumotlariga kirish imkoniyatlarini yaratish; qishloq aholisi va fermerlar o‘rtasida kooperatsiya madaniyati va boshqaruv ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha treninglar tashkil etish. Faqat shundagina meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari kichik ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, ularning daromadlarini barqaror ko‘paytirish va mamlakat eksport salohiyatini kengaytirishning muhim vositasiga aylanishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. International Cooperative Alliance (ICA) & EURICSE. “World Cooperative Monitor 2025: Top 300 cooperatives and mutual enterprises”, 2025.
2. Cooperatives Europe. “The power of Cooperation – Cooperatives Europe – Key statistics”, 2015.
3. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). “FAO unveils strategic co-op plans with Uzbekistan for 2025-2027”, [Trend.az](https://trend.az), 2025-yil 21-dekabr.
4. Stiglitz J. “Whither Reform? Ten Years of the Transition”, Annual World Bank Conference on Development Economics, 1999.
5. Ostrom E. “Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action”, Cambridge University Press, 1990.
6. Bijman J. “Agricultural cooperatives and market orientation: A challenging combination”, The Routledge Companion to Co-operatives, 2016, pp.208-221.
7. Valentinov V. “Why are cooperatives important in agriculture? An organizational economics perspective”, Journal of Institutional Economics, 2007, 3(1), pp.65-84.
8. Cook M.L. “The Future of U.S. Agricultural Cooperatives: A Neo-Institutional Approach”, American Journal of Agricultural Economics, 1995, 77(5), pp.1153-1159.
9. KM Matyakubovna, SF Kamolovna. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etishning imkoniyatlari va rivojlantirish istiqbollari. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4 (07), 214-221
10. KM Matyakubovna Development Of International Certification And Standardization Systems In Uzbekistan American Journal Of Education And Learning 4 (1), 60-67

11. MK Matyakubovna, I Ozodbek Corporate Culture And Leadership Styles: A Comparative Analysis Of Western And Eastern Management Journal Of Ultidisciplinary Bulletin 8 (3), 126-133



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**